

Ganjayeva Mamajan Matchanovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,
“Geografiya” kafedrası o‘qituvchisi.
Urganch sh. O‘zbekiston

TURIZM IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA KARTOGRAFIK TADQIQ QILISHNING ILMIY NAZARIY MASALALARI

Annotatsiya Ushbu maqolada Turizm imkoniyatlarini oshirishda kartografik tadqiq qilishning ilmiy nazariy asoslari hamda o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Turizm imkoniyatlarining hududiy jihatlari Respublikamiz hamda Xorazm viloyati misolida qisqacha tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: turizm, tur operatorlar, turistik xaritalar, turizm atlaslari, mavsumiy turizm, madaniy turizm, sport turizmi, davolash va dam olish turizmi, ta'lim turizmi agroturizm.

Ганжаева Мамажан Матчановна
Преподаватель кафедры географии Ургенчского государственного
университета имени Абу Райхона Беруни
г.Ургенч, Узбекистан

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ КАРТОГРАФИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ В ЭФФЕКТИВНОМ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ТУРИСТИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ

Аннотация: Научно-теоретические основы картографических исследований в расширении туристических возможностей

Аннотация В статье анализируются научно-теоретические основы и конкретные аспекты картографических исследований в расширении туристических возможностей. Территориальные аспекты туристических возможностей кратко изучены на примере нашей Республики и Хорезмской области.

Ключевые слова: туризм, туроператоры, туристические карты, туристические атласы, сезонный туризм, культурный туризм, спортивный туризм, лечебно-оздоровительный туризм, познавательный туризм, агротуризм.

Ganjayeva Mamajan Matchanovna
Teacher of the Department of Geography,
Urgench State University named after Abu Rayhon Beruniy
Urgench city, Uzbekistan

SCIENTIFIC AND THEORETICAL ISSUES OF CARTOGRAPHIC RESEARCH IN THE EFFECTIVE USE OF TOURISM OPPORTUNITIES

Annotation: Scientific and theoretical foundations of cartographic research in increasing tourism opportunities Abstract This article analyzes the scientific theoretical foundations and specific aspects of cartographic research in increasing tourism opportunities. The territorial aspects of tourism opportunities are briefly studied on the example of our Republic and the Khorezm region.

Keywords: tourism, tour operators, tourist maps, tourism atlases, seasonal tourism, cultural tourism, sports tourism, medical and recreational tourism, educational tourism, agrotourism.

Kirish. Bugungi kunda jahon miqyosida turizm va unga bog'liq xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishga mamlakatlar tomonidan keng e'tibor berilmoqda. Turli xil va rang barang usullar yodamida sohani rivojlantirish va bu orqali yanada ko'proq turistlar oqimini jalb qilish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Albatta, sohani rivojlantirish va salmoqli yutuqlarga erishishda marketing hamda shu bilan birga targ'ibot va tashviqot ishlarining amaliy ahamiyati juda kattadir.

Turizm rivojlangan mamlakatlarda tur operatorlar tashrif buyuruvchilar oqimini ko'paytirish maqsadida bepul xizmatlar (xususan gitlar, turistik xaritalar, muzeylarga tashriflar, estalik sovg'alari), turli xil festivallar, kornavallarni tashkil qiladilar. Bularning barchasi aniq oldindan rejalashtirilgan loyihalar asosida amalga oshiriladi.

Ushbu jarayonda hududning turistik va rekreatsion salohiyati, hududiy tafovutlari, imkoniyatlari, tursitik marshrutlari haqida ma'lumot beruvchi turistik yo'l ko'rsatkichlar, xarita va joy planlarning ahamiyatini alohida ta'kidlash joiz.

Adabiyotlar sharhi: Xorijiy mamlakatlarda turizmni rivojlantirish xususiyatlarini tadqiq qilish bo'yicha V.Senin, V.S.Bogolyubov, A.P.Durovich, M.V.Efremova, V.A.Kvartalnov, S.B.Julidov kabi olimlar shug'ullanishgan hamda ilmiy izlanishlar olib borganlar. O'zbekistonda turizmini rivojlantirish masalalari va mintaqaviy xususiyatlari yuzasidan respublika olimlaridan M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, G'.H.Qudratov, Eshtayev, O.Xomidov, B.Turayev, D.Usmanova, N.Ibadullayev, R.Amriddinova, Safarov va M.Alimova kabi olimlar izlanishlar olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi: Xashimov Sh.J tomonidan Madaniy turizmni rivojlantirishda O'zbekistonda madaniy turizmining rivojlanishi va uning mamlakat xalqaro imidji yuksalishiga ko'rsatgan ta'siri masalalari tahlil qilingan. Kurbanova M tomonidan diniy turizm, ziyorat va turizmning kelib chiqish tarixi

ilmiy asoslanib, tushunchalarining mohiyati nazariy jihatdan yoritib berilgan, xorijiy olimlar tomonidan berilgan ta'riflar tahlil qilingan. M.Roman, E.Tog'aymurodov tomonidan Samarqand viloyati fermer xo'jaliklari misolida agroturizmni rivojlantirish imkoniyatlari statistik tahlil, logistik regressiya metodlaridan foydalangan holda tadqiq qilingan. Azamova S.A tomonidan O'zbekiston ekologik muhitining ekologik globallashuv jarayoni asosida o'zgarayotgani, ekologik munosabatlarning tarixiy tajribalar natijasida meyoriy rivojlanganligi, milliy ekologik qarashlar, tasavvur va bilimlar jahon ekologik madaniyati rivojiga ta'sir etganligi va ularga adekvatligi falsafiy asoslab berilgan.

Tahlil va natijalar: Turistik xaritalar turizm maqsadlari uchun mo'ljallangan geografik xaritalardir. Turizm atlaslari, xaritalari va sxemalari keng istemolchilar doirasiga mo'ljallangan ommaviy kartografik mahsulotlar bo'lib, ularni yaratish zamonaviy kartografiyadagi eng qiziqarli va istiqbolli yo'nalishlardan biridir.

Tashrif buyurgan turistlar hududning mazkur kartografik qo'llanmalar yordamida mustaqil marshrutlarni tashkil qilishda, operativ qarorlar qabul qilishda, transport imkoniyatlaridan optimal foydalanishda, diqqatga sazovor joylarni tez va oson aniqlashda, sarf xarajatlarni qisqartirishda hamda hudud to'g'irisida yanada kengroq qo'shimcha ma'lumotlarni olishda foydalanadilar. Ayni vaqtda, yo'l ko'rsatkichlar, xarita va joy planlarni sayohlarga diqqatga sazovor joylar haqida ma'lumot va boshqa foydali materiallar berilishda yaqindan yordam beradi.

Turistik xaritalarning ijtimoiy-iqtisodiy kartografiya tizimidagi o'rnini juda katta. Ular har doim aholi va joylashuv, xizmat ko'rsatish, transport xaritalari, shuningdek, relef, landshaft, iqlim va daryo tarmog'ini aks ettiruvchi fizik xaritalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy kartografiya yo'nalishlarining yutuqlariga tayanib, turizm statistikasi va bir qator tabiiy va gumanitar fanlarning bilimlaridan foydalanib, XXI asr boshlariga kelib turizm xaritalari kartografiyada mustaqil va juda talabgor bo'limga aylandi.

Shu bilan birga turistik xaritalarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- Kartalarning aniqligi, ifodasi va yaxshi o‘qilishi uchun alohida e’tibor;
- Rangi, yorqinligi va grafikasi bo‘yicha badiiy dizaynni puxta ishlab chiqish;
- Kartaning o‘zidan ko‘proq joy egallaydigan katta jizohlardan foydalanish;
- Rasmlar, fotosuratlar, ko‘rsatmalar, matnlar va turli ma'lumotnomalar mavjudligi;
- Foydalanish qulayligi (format, kompozitsiya, buklash).

O‘z navbatida turizm xaritalari bir qancha turlarga bo‘linadi va ularning har biri o‘ziga xos imkoniyatlar hamda afzalliklar bilan ajralib turadi.

Hududiy qamroviga ko‘ra

1. Shahar turizm xaritalari: Ma'lum bir shahar yoki uning atrofidagi diqqatga sazovor joylar uchun mo‘ljallangan (masalan, Dubay, London, Istanbul turistik xaritalari). Ushbu xaritalar yirik turistik shaharlarda juda muhim manba sanaladi.
2. Mintaqaviy turistik xaritalari: Katta mintaqa yoki bir nechta shaharlarni qamrab oladi (masalan, Markaziy Osiyo, Janubiy Sharqiy Osiyo va G‘arbiy Yevropa mintaqalari uchun xaritalar). Masalan, Beniluks hududiga tashrif buyurgan turistlar uchun bunday xaritalar ekskursiyani juda qulay tashkil qilish imkonini beradi.
3. Mamlakat turizm xaritalari: Butun mamlakat bo‘ylab sayohat qilishda foydalanish uchun mo‘ljallangan (masalan, Gretsiya Turkiya yoki Italiya turizm xaritalari).

Turizm sohalari bo‘yicha turlari

1. Mavsumiy turizm xaritalari: Ma'lum bir mavsum yoki mavzu (masalan, bahorgi tog‘ va cho‘l hududlariga sayr, qishki sport, yozgi plyaj, umra yoki haj ziyorati) uchun mo‘ljallangan xaritalar.
2. Madaniy turizm xaritalari: Hududlarning tarixiy, madaniy, arxitektura obektlari tasvirlangan va ular bilan tanishishni ko‘zda tutadigan xaritalar. Masalan Qadimgi Rim shahri, Afina, Parij, Xiva Samarqand va boshqalar.
3. Sport turizmi xaritalari: Tog‘, piyoda, suv, chang‘i, ot, motosikl, speleologiya va velosiped turizmi. Bugungi kunda jahon miqyosida turli xil sport musobaqalarining tashkil qilinishi bilan bog‘liq turizm yo‘nalishlari juda yaxshi rivojlangan.

Masalan, tennis musobaqalari (Australian open, US open, Angliya Premer ligasi va boshqalar)

4. Davolash va dam olish turizmi yoki tibbiyot turizmi xaritalari: Sanatoriy-kurort (statsionar) va ekspeditsion (piyoda, suv, ot, velosiped). Odatda ushbu xaritalarda dam olish va davolanish uchun qulay obektlar hamda resurslar tasvirlanadi. Masalan, Gavayi orollari, Bagam orollari, Alp tog'lari, Chimyon tog'lari, Miraki va boshqalar.

5. Agroturizm xaritalari: Qishloq xo'jaligining noyob o'ziga xos yutuqlari va mahsulotlari bilan tanishish imkoniyatini beruvchi xaritalarda hududning ixtisoslashuv sohalari hamda aso-siy markazlari ko'rsatilib tavsiyaviy marshrutlar ham beriladi.

6. Tadqiqot yoki ilmiy turizm xaritalari: Me'moriy yodgorliklar, tarixiy va madaniy diqqatga sazovor joylar yoki har bir ilmiy tadqiqot yo'nalishiga mos boshqa obektlar tasvirlanadi. Masalan savannalar va ularning bio xilma-xilligini tasvirlovchi turistik xaritalar.

7. Ta'lim turizmi xaritalari: Hududlar bo'yicha ta'lim markazlari, universitetlar, kollejlari, til maktablari, seminarlar, biznes treninglar va boshqalar haqida ma'lumot beradi.

8. Ekologik turizm xaritalari: Tabiatni saqlash, milliy parklar va qo'riqxonalar va ularning hududiy xususiyatlari haqida ma'lumotlar beradi. Masalan Quyi Amudaryo noyob to'qay landshaftlari xaritalari asosida ekologik turizm marshrutlarini shakllantirish mumkin.

8. Etnik (etnografik) va ziyorat (diniy) turizm xaritalari: Tarixiy-me'moriy muzeylar, etnografik qishloqlar, qadimiy urf odatlar, marosimlar haqida ma'lumotlar beradi. Masalan, shvedlar madaniy qadriyatlari, hindlar bayramlari, zardushtiylilik dini marosimlari va boshqalar.

Albatta turizmning tashkiliy shakli, turistik imkoniyatni baholash, turistik rayonlashtirish kabi mazmundagi xaritalarni ham kiritish mumkin. Hozirgi kunda kartografiyaning boshqa sohalari kabi turizm xaritalarini tuzishda zamonaviy

axborot texnologiyalariga asoslangan animatsion hamda veb va xaritalar tuzilmoqdaki ulardan foydalanish imkoniyatlari yanada kengayib bormoqda.

Xulosa o'rnida shuni takidlash keraki turizm xaritalarni tuzish jarayoni ma'lumotlar bazasini shakllantirish; geodezik, kartografik manbalarni to'plash, geografik asosni shakllantirish, statistik manbalarni shakllantirish xarita dasturini tayyorlash va uni nashr qilish kabi boshqichlardan iborat.

Respublikamizda turizm xaritalarini tuzish va foydalanish turizm rivojlangan mamlakatlarga nisbatan sustroq rivojlangan. Ammo respublikada juda katta turistik imkoniyatni targ'ibot tashviqot qilishda hamda uni hududiy tashkil etishda turistik xaritalarga juda katta ehtiyoj mavjud. Xususan turizm resurlariga boy bo'lgan Quyi Amudaryo minaqasi misolida turli xil mavzudagi turistik xaritalar va atlaslarni tuzish asosida hududning turistik imkoniyatlarini ko'rsatshimiz mumkin.

Xorazm viloyati misolida madaniy arxeologik (madaniy meros obektlari xaritalari), agroturizm (sholi etishtirish, qovun va bog' va uzum yetishtirishning o'ziga xos usullari) gostronomik turizm xaritalari (hududga xos bo'lgan taomlar: tuxum barak, ijjon, durvadik patir, baliq taomlari) ekologik turizm (noyob to'qay landshaftiga ega qo'riqxonalar, ko'llar landshaftlari) kabilarni xaritalashtirish asosida turizmning mazkur sohalari rivojlanishiga turtki berish mumkin.

Turizm bozorining rivojlanishi juda ko'plagan sohalarga ehtiyoj borligi sezilib qolmoqda, shu jumladan kartografik mahsulotlarga (geografik xarita va atlaslar) ham talab oshib bormoqda. Kelayotgan sayyohlar mamlakatimizni tabiiy sharoiti, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlari bilan yaqindan tanishishlari hamda ularga yo'l ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Shu maqsadda respublikamiz va alohida mintaqalarni tizimli turistik xaritalarini yaratish orqali turislar oqimini ya'nada ko'payishiga xissa qo'shilgan bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Прохорова Э. А. Социально-экономические карты: учебное пособие, электронное издание сетевого распространения — М.: «КДУ», «Добросвет», 2018.
2. D.T.Khudayberganov, D.B.Urinova "Mechanisms of increasing tourism potensial in khorazm region and using them" Turan international university 2024.

3. Ruzmetov B., Matyakubov U., Khudoyberganov D. Prospects of tourism development in Khorazm region. "Actualne problemy turizm - 2009"
4. Дилмонов К.Б. Classification and types of tourism.
5. Associate Professor Turtureanu Anca, PhD Types and Forms of Tourism, Acta universitatis danubius nr. 1/2008
6. Kasper jancewicz, Dorota borowicz, Tourist maps – defiition, types and contents.